

BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLİYAVIY BUZILISHLARNING TURLARI VA ULARNING OLDINI OLISH YO‘LLARI

Ismoilov Muhammadqodir Ulug‘bek o‘g‘li

Jamoat xavfsizligi universiteti

magistratura tinglovchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonning budjet tashkilotlarida sodir bo‘layotgan moliyaviy buzilishlar turlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, bu buzilishlarning sabablari, ularning oldini olishga oid nazariy va amaliy mexanizmlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida huquqiy-hujjatlar tahlili, statistik ma’lumotlar, holat tahlili. Tahlillar asosida buzilishlarni kamaytirish bo‘yicha xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy buzilishlar, budjet tashkilotlari, moliyaviy nazorat, korruptsiya, oldini olish chorasi, huquqiy normalar, oshkoralik

ВИДЫ ФИНАНСОВЫХ НАРУШЕНИЙ В БЮДЖЕТНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ И СПОСОБЫ ИХ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ

Аннотация

В данной статье анализируются виды финансовых нарушений, происходящих в бюджетных организациях Узбекистана. Кроме того, рассматриваются причины этих нарушений, а также теоретические и практические механизмы их предотвращения. В качестве методологии исследования использованы анализ нормативно-правовых документов, статистические данные и кейс-анализ. На основе проведённого анализа разработаны выводы и предложения по снижению количества нарушений.

Ключевые слова: финансовые нарушения, бюджетные организации, финансовый контроль, коррупция, меры профилактики, правовые нормы, прозрачность.

TYPES OF FINANCIAL VIOLATIONS IN BUDJETARY ORGANIZATIONS AND METHODS FOR THEIR PREVENTION

Abstract

This article analyzes the types of financial violations occurring in budgetary organizations of Uzbekistan. In addition, it examines the causes of these violations, as well as theoretical and practical mechanisms for their prevention. The research methodology includes the analysis of legal and regulatory documents, statistical data, and case studies. Based on the analysis, conclusions and recommendations have been developed to reduce the number of violations.

Keywords: financial violations, budgetary organizations, financial control, corruption, preventive measures, legal norms, transparency.

Kirish

Budjet tashkilotlari davlat moliyaviy tizimining muhim qismi hisoblanadi. Ular orqali davlat siyosatlari amalga oshiriladi, ijtimoiy soha, ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma kabi umumiy ehtiyojlar qondiriladi. Shu sababli, budjet tashkilotlarida moliyaviy buzilishlar yuzaga kelishi davlat resurslarining samarali ishlatilmasligiga, ishonchning pasayishiga va ijtimoiy-iqtisodiy salbiy oqibatlariga olib keladi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda moliyaviy buzilishlar va korrupsiya holatlari bo'yicha turli tekshiruvlar va auditlar o'tkazilmoqda. Masalan, byudjet va moliyaviy nazorat organlari, Hisob palatasi tomonidan o'tkazilgan audit natijalari moliyaviy xatoliklar, davlat xaridlaridagi buzilishlar, byudjet mablag'larining noto'g'ri ishlatilishi kabi holatlar aniqlanmoqda. Budjet tashkilotlarida moliyaviy buzilishlar holatlari hali-hanuz dolzarb muammo bo'lib qolmoqda va ularning oldini olish bo'yicha tizimli yondashuvlar yetarli darajada shakllanmagan. Ushbu maqolaning maqsadi — budjet tashkilotlarida moliyaviy buzilishlarning turlarini aniqlash, ularning sabablari va oldini olish choralarini ilmiy jihatdan tahlil qilish.

Adabiyotlar sharhi

Budjet tashkilotlarida moliyaviy buzilishlar masalasi nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Bu yoʻnalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar moliyaviy intizom, audit tizimi, korrupsiyaga qarshi kurash va shaffoflikning taʼsiri haqida keng qamrovli maʼlumotlar beradi.

Moliyaviy buzilishlar turlari va ularning yuzaga kelish sabablari haqida **Nasiri E.** tomonidan ishlab chiqilgan tadqiqotda jamoat sektorida moliyaviy firibgarlik (fraud)ning asosiy shakllari: hujjatlarni qalbakilashtirish, notoʻgʻri hisob yuritish, mablagʻlarni maqsadsiz sarflash holatlari tahlil qilingan. Ular maxsus “forensik buxgalteriya” modelini taklif qilib, budjet tashkilotlarida moliyaviy buzilishlarning oldini olishda ilgʻor audit uslublarining ahamiyatini asoslab berishgan.

Shuningdek, **Christy D. Smith** oʻzining monografiyasida davlat xaridlari sohasidagi moliyaviy jinoyatlar, ayniqsa, "oq yoqalik jinoyatlari" (white-collar crime)ning tipik koʻrinishlari haqida tahlil bergan. Muallif tender jarayonlaridagi qonun buzilishlari, manfaatlar toʻqnashuvi, narxni sunʼiy oshirish kabi holatlarni aniqlashda huquqiy va iqtisodiy yondashuvni uygʻunlashtirgan.

M. Alisherovning tadqiqotida budjet tashkilotlarida kreditorlar bilan hisob-kitob yuritishdagi tartibsizliklar va moliyaviy hujjatlar aniqligi masalalari koʻtarilgan. Muallif byudjet mablagʻlarini toʻgʻri rejalashtirish va sarflashda ichki moliyaviy nazoratning rolini alohida taʼkidlaydi.

M. Makhamadaliyeva tomonidan olib borilgan tadqiqot esa Oʻzbekiston byudjet hisobi standartlari va Xalqaro davlat sektori buxgalteriya standartlari (IPSAS) oʻrtasidagi farqlarni yoritgan. U mazkur standartlarga moslashish orqali hisobotlardagi shaffoflikni oshirish mumkinligini ilmiy asoslagan.

Oʻzbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan eʼlon qilingan audit hisobotlari va monitoring natijalari davlat mablagʻlarining notoʻgʻri ishlatilgani, tender qonunchiligining buzilishi va boshqa moliyaviy xatoliklarni koʻrsatadi. Masalan, 2025-yilgi hisobotiga koʻra, audit natijasida 5,6 trillion soʻmlik samarasiz xarajatlar qisqartirildi

va 4 trillion soʻmlik qonunbuzilishlar aniqlangani, bu muammoning jiddiyligidan dalolat beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot Oʻzbekiston Respublikasidagi budget tashkilotlarida uchrayotgan moliyaviy buzilishlar turlarini aniqlash, ularning asosiy sabablarini tahlil qilish va ularni bartaraf etishda tizimli tahlil, hujjatlar tahlili, empirik tahlil, solishtirma tahlil usullaridan foydalanildi.

Moliyaviy qonunbuzilishlar budget tashkilotlarida eng dolzarb va xavfli muammolardan biridir. Moliyaviy buzilishlar — buxgalteriya hisobida yoki moliyaviy hisobotlarda haqiqiy holatni notoʻgʻri aks ettiruvchi, jiddiy xato yoki firibgarlik natijasida yuzaga keladigan kamchiliklardir. Ular korxonaning aktivlari, majburiyatlari, daromadlari yoki xarajatlariga taʼsir koʻrsatib, auditorlik riskini oshiradi va tashqi foydalanuvchilarni notoʻgʻri qaror qabul qilishga olib kelishi mumkin. Ushbu buzilishlar, odatda, quyidagi shakllarda namoyon boʻladi: moliyaviy hisobotlarda soxtalik qilish, aktivlarni noqonuniy egallash yoki oʻzlashtirish, davlat xaridlari jarayonida tender qonunlarini buzish, soliqdan boʻyin tovlash, “ghost workers” yaʼni mavjud boʻlmagan xodimlarga maosh yozish, maqsadsiz byudjet mablagʻlaridan foydalanish, manfaatlar toʻqnashuvi va boshqa korrupsiya koʻrinishlari. Ushbu buzilishlarning yuzaga kelishiga, asosan, ichki moliyaviy nazorat tizimlarining zaifligi, rahbar va moliyaviy xodimlar malakasining pastligi, moliyaviy axborot tizimlarining ishonchliligi pastligi, ochiqlik va shaffoflikning yetarli emasligi, shuningdek, korrupsiyaviy omillar sabab boʻlmoqda.

Moliyaviy qonunbuzilishlar yuzaga kelishiga olib keladigan asosiy sabablar quyidagilardir:

- ichki nazorat va auditorlik tizimlarining zaifligi;
- normativ-huquqiy bazada kamchiliklar;
- shaffoflik va ochiq maʼlumotlarning yetishmasligi;
- kadrlar malakasining pastligi, yetarli oʻqitilmaganlik;
- korrupsiya va mansabdorlarning manfaatlar toʻqnashuvi;
- reytinglar (misol uchun, bosim ostida tez natijalar koʻrsatish talab qilinishi);

- boshqaruv tizimi zaifligi;
- texnologik nazorat vositalarining yetishmasligi;
- ma'lumotlar va it tizimlarining xavfsizligi kamligi.

Dunyo tajribasida ham bu muammolar keng tarqalgan. Association of Certified Fraud Examiners (ACFE) tomonidan o'tkazilgan xalqaro tadqiqotga ko'ra, tashkilotlar yillik daromadlarining o'rtacha 5 foizini firibgarlik sabab yo'qotadi. Ularning 89 foizi aktivlarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lsa, 5 foizi moliyaviy hisobotlarni soxtalashtirish bilan bog'liqdir [1]. Qozog'iston Respublikasi Oliy auditi tomonidan 2025 yilda qishloq xo'jaligi sohasida o'tkazilgan audit natijalariga ko'ra 179 million tengedan ortiq byudjet mablag'larining samarasiz rejalashtirilishi va 66,2 milliard teng miqdorida maqsadsiz foydalanilgani aniqlangan [2]. Meksikada esa davlat xaridlarida sodir etiladigan firibgarliklarni oldindan aniqlash maqsadida sun'iy intellekt asosida mashina o'rganish algoritmlari qo'llanila boshlandi. Bu orqali korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan kontraktlar tahlil qilinib, riskli shartnomalar ilgari surilgan [3].

O'zbekiston misolida qaralganda, bu muammolar ayniqsa so'nggi yillarda davlat moliyaviy nazorati organlari tomonidan faol o'rganilmoqda. 2023 yilda budjetdan 1,2 trillion so'mlik noqonuniy xarajatlar, 200 milliard so'mlik moddiy zarar va boshqa moliyaviy intizom buzilishlari aniqlangan [4]. 2024 yilda Hisob palatasi tomonidan o'tkazilgan auditda Vazirlik va idoralarning 9,2 trillion so'mlik samarasiz xarajatlari maqbullashtirildi, 2,3 trillion so'mlik moliyaviy kamchiliklar oldi olindi [5].

Xorijiy mamlakatlar ushbu muammolarning oldini olishda bir necha samarali yondashuvlarni qo'llamoqda. Jumladan, AQSh, Britaniya kabi davlatlar budjet mablag'larining harakatini real vaqt rejimida monitoring qilish tizimlarini joriy qilgan. Shotlandiyada "National Fraud Initiative" doirasida barcha davlat sektor tashkilotlarida ishchi ma'lumotlari, hisob-kitoblar va aktivlar doimiy ravishda avtomatlashtirilgan tizimda solishtiriladi [6]. Yevropa Ittifoqi davlatlarida esa davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlar yagona platforma orqali ochiq e'lon qilinadi va bu jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi. Estoniyada elektron hukumat tizimi orqali barcha budjet

operatsiyalari raqamlashtirilgan bo'lib, ularni maxsus audit algoritmlari real vaqtda nazorat qiladi.

Shunday qilib, moliyaviy qonunbuzilishlarni aniqlash va oldini olish uchun kuchli ichki nazorat tizimi, jamoatchilik nazorati, raqamli texnologiyalarni joriy etish, xodimlarni muntazam o'qitish va shaffoflikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston uchun eng samarali yondashuvlardan biri bu — xorijiy tajribalardan foydalangan holda moliyaviy faoliyatda ochiqlik va raqamli audit tizimini keng joriy etish bo'ladi.

Xulosa

Budjet tashkilotlarida moliyaviy qonunbuzilishlar mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga, davlat boshqaruvining samaradorligiga va jamoatchilik ishonchiga sezilarli zarar yetkazmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida moliyaviy buzilishlar asosan davlat xaridlari, moliyaviy hisobotlarni soxtalashtirish, va aktivlarni noqonuniy o'zlashtirish shaklida yuzaga kelmoqda. Ushbu holatlar davlat byudjeti samarali va maqbul taqsimlanishini to'xtatib, davlat resurslarining isrof bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birga, ichki nazorat tizimlarining yetarlicha rivojlanmagani, xodimlarning malaka darajasi va axborot tizimlarining sustligi, shuningdek korrupsiya muhitining mavjudligi moliyaviy qonunbuzilishlarning asosiy sabablariga aylanmoqda.

Xorijiy davlatlarda joriy etilgan zamonaviy nazorat va monitoring texnologiyalari, elektron tizimlar orqali real vaqt rejimida amalga oshiriladigan auditi, ochiq ma'lumotlar platformalari hamda jamoatchilik nazorati mexanizmlari moliyaviy qonunbuzilishlarni kamaytirishda samarali natijalar beradi. O'zbekiston sharoitida ham raqamlashtirish jarayonlari, shaffoflikni oshirish va nazoratni kuchaytirish bo'yicha aniq islohotlar amalga oshirilmoqda, ammo bu jarayonlarning to'liq tizimlashtirilishi va keng joriy etilishi zarur.

Shu sababli, moliyaviy qonunbuzilishlarning oldini olish uchun nafaqat qonunlar va tartib-qoidalar kuchaytirilishi, balki budjet tashkilotlari faoliyatining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni keng qo'llash, kadrlarning malakasini oshirish, ichki audit va ichki nazorat tizimlarini mustahkamlash hamda jamoatchilik nazoratini faollashtirish kabi kompleks choralar zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ACFE - Occupational Fraud 2024: A Report to the Nations, 2024.
2. <https://www.caravan-info.pro/uz/audit>
3. A. Aldana, A. Falcon-Cortes, H. Larralde - “A machine learning model to identify corruption in M’exico’s public procurement contracts”, 2022.
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/16/budget/>
5. <https://president.uz>
6. AUDITSCOTLAND, “Rise in fraud and error detection across public sector”, 2024.
7. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi, 26.12.2013 y.
8. O‘zbekiston Respublikasining qonuni. “O‘zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to‘g‘risida” O‘RQ-546-son, 01.09.2019 y.